lar uning zamonaviy hodisalarga faol munosabatda bo‘lib, ijtimoiy shaxs sifatida shakllanish jarayonida ekanligini ko‘rsatadi. Roman oxirida Miryoqub ma’rifatparvarlik harakati yo‘nalishidagi inson sifatida tasvirlanadi. Romanning ikkinchi qismi mavjud emasligi sababli uning keyingi faoliyati qorong‘uligicha qolgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon romanda shaxsiy fojiani tasvirlash orqali butun jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini yoritadi. Adib millatning bilib yoki bilmay qabul qilgan marksizm g‘oyalarini tanqidga olib, bu masalani romanning asosiy mavzusiga aylantiradi. Sharafiddin Xo‘jayev va Miryoqub obrazlari orqali Cho‘lpon xalqning og‘ir turmushi, islohotlarga bo‘lgan ehtiyoji va yangi davrga intilish harakatlarini ochib beradi.

Iste’dodli adibning ushbu romani o‘zbek milliy romanchiligi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi. Afsuski, roman nashridan bir yil o‘tib, ta’qiqqa uchradi va ikkinchi qismi butunlay yo‘qoldi. Shunga qaramay, “Kecha va kunduz” romani tarixiy hujjat darajasiga ko‘tarilib, bugungi kunda yosh adiblar uchun tajriba maktabiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Abdulhamid Ch. Kecha va kunduz. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2000, 287-bet.

(2). Quronov D. Cho‘lpon. Toshkent, “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2022, 160-bet.

(3). Quronov D. Cho‘lpon nasriy poetikasi. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2004, 288-bet.

(4). Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004, 457-bet.

Samandarova Muhayyo Sultanovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi;
e-mail: muhayyosultanovna277@gmail.com)

“CHINOR” ROMANIDA AYOLLAR OBRAZINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazining badiiy-estetik talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining nasriy va dramatik asarlarida ayol siymosining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, psixologik chuqurligi hamda ijtimoiy funksiyasi ilmiy jihatdan yoritiladi. Ayol obrazining realizm tamoyillari asosida yaratilishi, ichki dramatizm va estetik ideal uyg‘unligida shakllanishi tahlil etiladi. Shuningdek, obraz yaratishda qo‘llanilgan psixologik tasvir, ichki monolog, dialog va badiiy detal kabi vositalarning funksional ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Asqad Muxtor ijodida ayol obrazi o‘zbek nasrining muhim estetik hodisasi ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, badiiy obraz, psixologizm, realizm, estetik ideal, ichki monolog, ijtimoiy muhit, xarakter, o‘zbek nasri.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖЕНСКИХ ОБРАЗОВ В РОМАНЕ «ЧИНОР»

Аннотация*. В данной статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация женского образа в произведениях узбекского писателя XX века Аскада Мухтара. В исследовании рассматриваются духовно-нравственный облик, психологическая глубина и социальная функция женских персонажей в прозе и драматургии автора. Особое внимание уделяется принципам реализма, внутреннему драматизму и формированию эстетического идеала в создании образа женщины. Также раскрывается функциональное значение таких художественных средств, как внутренний монолог, диалог, психологическая детализация и портретная характеристика. Результаты исследования показывают, что женский образ в творчестве Аскада Мухтара является важным эстетическим явлением узбекской литературы.*

Ключевые слова: *женский образ, художественный образ, психологизм, реализм, эстетический идеал, внутренний монолог, социальная среда, характер, узбекская проза.*

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF FEMALE CHARACTERS IN THE NOVEL “CHINOR”

Annotation*. This article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of female characters in the works of the prominent Uzbek writer of the twentieth century, Askad Muxtor. The study examines the moral and spiritual image, psychological depth, and social function of female characters in the author's prose and dramatic works. Particular attention is paid to the principles of realism, internal dramatism, and the formation of an aesthetic ideal in portraying women. The functional significance of artistic devices such as internal monologue, dialogue, psychological detail, and portrait characterization is also explored. The*

findings demonstrate that the female image in Askad Muxtor's творчество represents an important aesthetic phenomenon in Uzbek prose.

***Keywords**: female image, literary character, psychologism, realism, aesthetic ideal, internal monologue, social environment, character, Uzbek prose.*

Kirish. XX asr o'zbek adabiyotida inson shaxsini badiiy talqin qilish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda adiblar jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni teran psixologik asosda ochib berishga intildilar. Ana shu adabiy jarayonda Asqad Muxtor ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. U nasr va dramaturgiya sohasida samarali ijod qilib, inson qalbini, uning ichki ziddiyatlarini va ma'naviy tanlovlarini badiiy tadqiq etdi.Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazi markaziy estetik kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayol siymosi orqali yozuvchi jamiyatning axloqiy darajasini, ma'naviy muhitini va insoniy qadriyatlarini yoritadi. Ayol obrazlari oddiy maishiy vazifalarni bajaruvchi personajlar emas, balki murakkab ruhiy dunyoga ega bo'lgan, mustaqil tafakkur yurita oladigan shaxslardir. Yozuvchi ayolni, ko'pincha, ijtimoiy o'zgarishlar davrida tasvirlaydi. Bu esa obrazning ichki dramatizmini kuchaytiradi. Ayol qahramonlar turli sinovlardan o'tadi, lekin o'z ma'naviy sobitligini saqlab qoladi. Shu jihatdan, Asqad Muxtor ijodida ayol obrazi estetik ideal va hayotiy realizm uyg'unligida yaratilgan.Mazkur tadqiqotning maqsadi – Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazining badiiy-strukturaviy xususiyatlarini, psixologik qatlamini va ijtimoiy funksiyasini chuqur tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Asqad Muxtor ijodi yuzasidan o'zbek adabiyotshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. XX asr o'zbek adabiyoti tarixiga oid ilmiy manbalarda yozuvchining roman va qissalari g'oyaviy-badiiy jihatdan baholangan. Tadqiqotchilar adibning realizm an'analariga sodiqligini, psixologik tasvir mahoratini va inson xarakterini yaratishdagi individualligini alohida ta'kidlaganlar.Biroq ayol obrazining alohida tipologik tizim sifatida o'rganilishi yetarli darajada chuqur emas. Ayrim maqolalarda ayol qahramonlar haqida fikr yuritilgan bo'lsa-da, ularning ichki dramatizmi, ruhiy tafakkuri va ijtimoiy faolligi kompleks tarzda tahlil qilinmagan. Adabiyot nazariyasiga oid ilmiy ishlarda badiiy obraz va xarakter masalalari keng yoritilgan. Psixologizm, ichki monolog, badiiy detal, portret tasviri kabi tushunchalar nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu metodologik asoslar Asqad Muxtor asarlaridagi ayol obrazini tahlil qilishda muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, XX asr o'zbek nasrida ayol obrazi masalasi boshqa yozuvchilar ijodi misolida qisman o'rganilgan. Ammo Asqad Muxtor ijodidagi ayol siymosining estetik ideali, ijtimoiy funksiyasi va psixologik chuqurligi alohida tadqiqot obyekti sifatida keng miqyosda ko'rib chiqilmagan. Shu bois mazkur mavzu ilmiy yangilik kasb etadi.

Tadqiqot davomida Asqad Muxtor asarlaridagi ayol obrazlari badiiy tizimd oirasida chuqur o'rganildi. Roman qahramonlari turmushda turli qiyinchiliklarga duch keladi. Ba'zi ayollar oilaviy muammolar, ijtimoiy bosim yoki shaxsiy iztiroblar bilan kurashadi. Shunga qaramay, ular sabr va matonat bilan hayot sinovlarini yengib o'tishga intiladi. Muallif aynan shu jarayon orqali ayolning ruhiy kuchi va bardoshini namoyon etadi. Avvalo, ayol qahramonlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi tahlil qilindi. Yozuvchi ayolni axloqiy sobitlik, sadoqat va fidoyilik timsoli sifatida tasvirlaydi. Biroq bu fazilatlar sun'iy ideallashtirish asosida emas, balki hayotiy voqealar va ichki kurashlar orqali ochiladi. Ayol obrazining psixologik qatlamini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, yozuvchi ichki monolog va ruhiy tafsilotlardan keng foydalanadi. Ayolning shubhalari, iztiroblari, ichki qarama-qarshiliklari realizm asosida tasvirlanadi. Bu esa obrazni jonli va ishonarli qiladi. Ijtimoiy jihatdan qaralganda, ayol qahramonlar jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Ular mehnat jarayonida, jamoat faoliyatida va ma'naviy muhit shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu esa yozuvchining ayolga nisbatan zamonaviy qarashini namoyon etadi. Badiiy vositalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Askad Muxtor portret tasviri orqali qahramonning ichki dunyosini ochishga intiladi. Dialoglar xarakterlar o'rtasidagi ziddiyatni yoritadi. Ramziy detallar esa ayol obrazining estetik mazmunini boyitadi. Qiyosiy-tipologik jihatdan ayol obrazi romantik ideallashtirishdan farqli ravishda realizm asosida yaratilgan. U mukammal emas, balki ichki kurashlar orqali shakllangan shaxs sifatida gavdalanadi. Shu bilan birga, yozuvchi ayolni estetik ideal darajasiga ko'taradi. Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazining badiiy-estetik xususiyatlarini o'rganishda kompleks yondashuv tamoyili asos qilib olindi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy adabiyotshunoslik nazariyasi, realizm konsepsiyasi hamda psixologik tahlil usullariga tayangan holda shakllantirildi. Avvalo, tarixiy-adabiy metod qo'llanilib, yozuvchining asarlari yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy muhiti hisobga olindi. Ayol obrazining shakllanishi va rivojlanishi XX asr o'zbek jamiyati kontekstida tahlil qilinib, uning davr ruhiga munosabati va ijtimoiy funksiyasi aniqlashtirildi. Qiyosiy-tipologik metod asosida Asqad Muxtor ijodidagi ayol obrazlari boshqa o'zbek nasri namunalari bilan qiyoslanib, yozuvchining obraz yaratishdagi individualligi va estetik qarashlaridagi o'ziga xoslik belgilandi. Strukturaviy-semantik tahlil orqali ayol obrazining

asar badiiy tizimidagi o‘rni, syujet rivojidagi vazifasi, konflikt ichidagi roli va ramziy qatlamlari o‘rganildi. Psixologik tahlil metodi tadqiqotning muhim yo‘nalishi sifatida ichki monolog, ruhiy tafsilot, dialog va badiiy detal vositasida qahramonlarning ichki kechinmalari, iztiroblari va qarama-qarshiliklarini ochib berishga xizmat qildi. Matnshunoslik yondashuvi asosida asar matnlari bevosita tahlil qilinib, obraz yaratishda qo‘llanilgan til vositalari, stilistik birliklar va poetik elementlarning funksional ahamiyati aniqlandi. Shuningdek, tahlil, sintez, umumlashtirish va sistemalashtirish kabi ilmiy usullar qo‘llanib, ayol obrazining ma’naviy-axloqiy, psixologik va ijtimoiy jihatlari yaxlit tizim sifatida o‘rganildi. Natijada qo‘llangan metodologik yondashuv Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazining ko‘p qatlamli badiiy fenomen sifatida shakllanganini hamda uning realizm tamoyillari asosida yaratilganini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazi badiiy tizimning markaziy komponentlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi va u sujet rivojida ham, g‘oyaviy qatlam shakllanishida ham muhim funksiyani bajaradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi ayolni an’anaviy stereotip doirasida emas, balki murakkab ruhiy olam egasi sifatida tasvirlaydi. Misol sifatida yozuvchining “Chinor” romanidagiZuhra va Mohira obrazlarinini keltirishimiz mumkin. Ushbu obrazlar orqali ayol – jamiyatning axloqiy ko‘zgusi ekanligiga urg‘u beriladi. Ularning iztirobi orqali davrning ma’naviy inqirozi ochiladi, ularning sobitligi orqali esa insoniy qadriyatlar himoya qilinadi.Ayol qahramonlar, ko‘pincha, ichki ziddiyat, axloqiy tanlov va ijtimoiy bosim sharoitida harakat qiladi, bu esa obrazning dramatik kuchini oshiradi. Psixologik tahlil jarayonida aniqlanishicha, ichki monolog va ruhiy tafsilotlar ayol obrazining eng muhim poetik vositalaridan biridir. Yozuvchi tashqi harakatdan ko‘ra ichki jarayonlarga urg‘u beradi, natijada qahramonning ruhiy evolyutsiyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayol obrazlari ko‘pincha sabr-toqat, ma’naviy sobitlik va axloqiy qat’iyat timsoli sifatida talqin qilinadi, biroq ular idealizatsiya qilingan emas, balki hayotiy ziddiyatlar orqali shakllangan real shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Strukturaviy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ayol obrazi konflikt markazida joylashadi va voqealar rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tahlil natijalari ayol qahramonlarning faqat oilaviy muhit bilan cheklanmasdan, jamiyat hayotida faol pozitsiya egallashini ko‘rsatadi. Bu holat yozuvchining ayolga nisbatan yangicha estetik va ijtimoiy qarashlarini tasdiqlaydi. Til va uslub tahlili esa obraz yaratishda lirizm, ramziy detal va dialogning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari Asqad Muxtor ijodida ayol obrazi ko‘p qatlamli badiiy fenomen sifatida shakllanganini, uning realizm tamoyillari asosida yaratilganini hamda ma’naviy-estetik ideal bilan hayotiy haqiqat uyg‘unligida namoyon bo‘lishini ilmiy jihatdan tasdiqladi.Romanlarda ayollar obrazi juda ta’sirchan va hayotiy tarzda yoritilgan. Asardagi obrazlar orqali muallif o‘zbek ayolining mehribonligi, sabr -toqati va ma’naviy go‘zalligini ko‘rsatadi. Bu obrazlar kitobxonni oila qadriyatlarini qadrlashga, insoniy munosabatlarga e’tibor bilan qarashga undaydi.

Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazlarini, shartli ravishda, bir necha tipologik guruhga ajratish mumkin:

1. Ma’naviy sobitlik timsoli bo‘lgan ayollar – sabr-toqat, vijdon va sadoqat bilan ajralib turadi. Bularga “Chinor” romanidagi Onabibi obrazi hamda boshqa asarlaridagi Saodat singari qahramonlarni kiritish mumkin. Ular o‘z e’tiqodi va ichki pokligini saqlab qolgan holda ma’naviy barqarorlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.
2. Ichki ziddiyatli ayollar – jamiyat bosimi va shaxsiy orzular o‘rtasida kurashadi. Bularga Komila hamda Xosiyat kabi obrazlar misol bo‘la oladi. Ushbu qahramonlar ichki kechinmalar, iztirob va ikkilanishlar orqali murakkab ruhiy holatni ifodalaydi.
3. Ijtimoiy faol ayollar – jamoat hayoti, mehnat jarayoni va ma’naviy muhit shakllanishida faol ishtirok etadi. Bularga Saragul va Umida obrazlarini kiritish mumkin. Ular jamiyat taraqqiyoti, jamoatchilik faoliyati va ijtimoiy ong shakllanishida faol pozitsiyani egallaydi.
4. Ruhiy iztirob orqali kamol topuvchi ayollar – fojia va sinovlar orqali o‘zligini anglaydi. Bularga Sharofat aya hamda Robiya singari qahramonlar mansubdir. Ular boshidan kechirgan ruhiy sinovlar orqali ma’naviy yetuklik bosqichiga ko‘tariladi.

Xulosa. Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazi o‘zbek nasrining yuksak badiiy hodisalaridan biri hisoblanadi. Yozuvchi ayolni ko‘p qirrali, ruhiy jihatdan murakkab va ijtimoiy faol shaxs sifatida tasvirlaydi.Ayol siymosi orqali muallif davrning axloqiy muammolarini yoritadi, insoniy qadriyatlarni himoya qiladi. Psixologik chuqurlik va ichki dramatizm obrazning badiiy qimmatini oshiradi. Shunday qilib, Asqad Muxtor ijodida ayol obrazi realizm tamoyillari asosida yaratilgan bo‘lib, milliy qadriyatlar va zamonaviy tafakkur uyg‘unligini namoyon etadi. Bu esa yozuvchining badiiy mahorati va inson ruhiyatini teran anglash qobiliyatidan dalolat beradi. Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, Asqad Muxtor ijodida ayol obrazi oddiy badiiy personaj darajasidan ko‘tarilib, keng ijtimoiy-ma’naviy mazmun kasb etgan estetik ho-

disaga aylanadi. Yozuvchi ayol siymosida jamiyatning axloqiy mezonlarini mujassamlashtiradi hamda insoniylik, vijdon, sadoqat va matonat kabi qadriyatlarni badiiy umumlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ayol obrazining psixologik chuqurligi va ichki dramatizmi yozuvchi realizmining asosiy belgilaridan biridir. Ayol qahramonlar hayotiy ziddiyatlar, ruhiy sinovlar va axloqiy tanlovlar jarayonida shakllanadi, bu esa obrazning tabiiy va ishonarli chiqishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ayol obrazining ijtimoiy faol shaxs sifatida tasvirlanishi yozuvchining zamonaviy tafakkurini namoyon etadi hamda ayolning jamiyatdagi o'rnini yangicha estetik talqinda ko'rsatadi. Badiiy tasvir vositalarining puxta qo'llanilishi, ayniqsa, ichki monolog, dialog va ramziy detallarning uyg'unligi ayol obrazining estetik ta'sirchanligini kuchaytiradi. Umuman olganda, Asqad Muxtor asarlarida ayol siymosi milliy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy qarashlar uyg'unligida yaratilgan bo'lib, o'zbek nasrida ayol obrazining yangi bosqichini belgilaydi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek adabiyotshunosligida ayol obrazini o'rganish yo'nalishlarini yanada kengaytirish, yozuvchi ijodini chuqurroq tahlil qilish va uning estetik konsepsiyasini aniqlashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2010.
(2). Normatov U. Ijod psixologiyasi. Toshkent, "Akademnashr", 2011.
(3). Rahmonov N. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent, "Mumtoz so'z", 2012.
(4). Sultonov I. O'zbek romanchiligi taraqqiyoti. Toshkent, "Fan", 2014.
(5). Yo'ldoshev B. Badiiy mahorat masalalari. Toshkent, "Tafakkur", 2015.
(6). Karimov B. XX asr o'zbek nasrida psixologizm. Toshkent, "Akademnashr", 2016.
(7). Qodirov H. O'zbek nasrida xarakter va tip masalasi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2017.
(8). Adabiyot nazariyasi (jamoa mualliflar). Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2018.
(9). O'zbek adabiyoti tarixi. 6-jild, Toshkent, "Fan", 2019.
(10). Sharipov A. Zamonaviy o'zbek nasrida badiiy tafakkur. Toshkent, "Akademnashr", 2020.
(11). Ergasheva M. O'zbek adabiyotida ayol obrazi evolutsiyasi. Toshkent, "Tafakkur bo'stoni", 2020.
(12). Ismoilov J. Realizm va badiiy tafakkur masalalari. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2021.
(13). Xudoyberdiyev R. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent, "Akademnashr", 2021.
(14). Abdug'afforov A. Badiiy obraz va estetik ideal. Toshkent, "Mumtoz so'z", 2022.
(15). O'zbek nasri taraqqiyot tamoyillari (ilmiy maqolalar to'plami). Toshkent, "Fan", 2022.
(16). Karimova D. XX–XXI asr o'zbek adabiyotida ayol talqini. Toshkent, "Akademnashr", 2023.
(17). To'xtayeva L. Psixologik tasvir va ichki monolog poetikasi. Toshkent, "Innovatsion rivojlanish", 2023.

Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna (University of economics and pedagogy NOTM, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor v.b.)

ZEBO MIRZAYEVA SHE'RLARIDA RUHIY KECHINMA TASVIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zebo Mirzayeva she'riyatida ruhiy kechinmalarning badiiy tasviri tahlil etiladi. Shoira lirikasida ichki hissiyotlar, intim tuyg'ular va lirik qahramon ruhiyati qanday ifodalangani misollar asosida yoritiladi. Obrazlar tizimi, xususan, tabiat unsurlari orqali muhabbat, hijron va iztirob holatlari poetik talqin qilinadi. Shuningdek, kontrast, ramz, takror, ritorik so'roq kabi badiiy vositalarning ruhiy-emotsional mazmunni ochishdagi o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *she'riyat, ruhiy kechinma, lirik qahramon, obraz, muhabbat, hijron, iztirob, poetik tasvir, kontrast, ramz, badiiy vositalar, emotsionallik, lirik tahlil.*

Салохиддинова Нигорахан Иномжоновна (Университет экономики и педагогики НОТМ, доктор философских наук по филологии, и.о. профессора)

ОПИСАНИЕ ДУХОВНОГО ОПЫТА В СТИХАХ ЗЕБО МИРЗАЕВОЙ

Аннотация*. В данной статье анализируется художественное изображение духовных переживаний в поэзии Зебо Мирзаевой. Лирика поэтессы подчеркивает, как выражаются внутренние чувства, сокровенные эмоции и психика лирического героя. Система образов, в частности, через элементы природы, состояния любви, изгнания и страдания, интерпретируется поэтически. Также раскрывается роль художественных средств, таких как контраст, символика, повторение и риторический вопрос, в раскрытии духовного и эмоционального содержания.*

Ключевые слова: *поэзия, духовный опыт, лирический герой, образ, любовь, изгнание, страдание, поэтический образ, контраст, символ, художественные средства, эмоциональность, лирический анализ.*